

**BAXT KONSEPTIGA TURLI LINGVOMADANIYATLARDA GENDER
YONDASHUV****Naimjonova Irodaxon Ma'rufjon qizi****Sarvinoz Abduhalimova Usmonali qizi***Farg'ona davlat universiteti lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi magistranti*iorifjonova12@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada baxt konsepti hamda baxt to'grisida turli ta'riflar keltirilgan. "Baxt" konseptining qiyosiy-chog'ishtirma usuli yordamida qiyoslanayotgan tillarning dunyoqarashi ham talqin etiladi. Ushbu maqolada baxt konseptida gender yondashuvi turli misollar orqali bog'lab tushuntiriladi. "Baxt" konseptining rus va o'zbek tillaridagi gender xususiyatlari qiyoslanadi, ma'nolari ifodalanadi.*

Kalit so'zlar: *baxt konsepti, "ayollar baxti", "erkaklar baxti" tushunchalari, lingvokulturologiya*

Baxt tushunchasiga ko'plar turlicha ta'rif berishadi. „Baxt“ so'zi tojikchada mamnunlik holatini anglatadi.¹⁵ Baxtni har kim o'zidan kelib chiqib tushunadi. „Baxt“ ko'pincha insonning ijtimoiy holatidan kelib chiqib ham tushuniladi. Misol uchun, kambag'al inson uchun „baxt“ bu - uy yoki mashina sotib olish, xohlagan kiyimini sotib olish yoki orzu qilgan o'qishida ishlash bo'lsa, boy tabaqadagi insonlar bu narsalarga ehtiyoj his qilmaydi, lekin ular uchun oila tinchligi yoki sog'ligi kerak. Xuddi shunday sog' odam o'zidagi sog'ligini baxt deb hisoblamasligi mumkin, kasal odam esa sog' insonlarni ko'rib „baxtli insonlar“ deb hisoblaydi. Ammo hech kim haligacha baxtning aniq formulasini va uning aniq tushunchasini aniqlay olmagan. „Baxt konsepti“ shuning uchun ham keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Mening fikrimcha, har bir inson o'zidagi baxtni o'z vaqtida his qila olishi kerak, chunki baxtli daqiqalar uzoq davom etmaydi. „Baxt - o'tmishda yo'qotilgan yoki kelajakda kelishi mumkun bo'lgan narsa emas. Baxtni ayni paytda his qiling!“ (Jim Rohn) Inson oddiygina o'z mehrini tabiatga, hayvonlarga, makonga berib, baxtga erishishi mumkin. Inson har kuni o'ziga o'zi „men baxtliman“ deb kamida 3 marta aytishi kerak va bu orqali inson baxti yanada ortadi, chunki bu so'zlariga o'zi ishonib, o'zini yanada baxtli his qila boshlaydi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, baxtni faqatgina tashqi omillardagina, emas balki insonning emotsional holati orqali ham ko'rish mumkin.¹⁶ Bu fikrga qo'shilaman, sababi mavhum tushunchalar ham mavjudki, ularni ko'ra olmaymiz, lekin his qila olamiz. Misol uchun, sevgi, muhabbat, yaxshilik, oqibat, mehr, havas kabilar. Bularni his qilish orqali insonning baxti yanada ortadi. Ya'ni inson hamisha ham quvonchli damlarga ega bo'lavermaydi, ba'zida omadsizliklar qurshovida qoladi. Bunday vaziyatlarda oilasining mehri, oqibati, suyuqli insonning sevgisi, do'stlarning yaxshiliklari bizga baxtni yanada chuqurroq his qilishga yordam beradi. Fikrim dalili sifatida, mashhur fikrlarni keltirib o'tmoqchiman: „Kimdir, go'yo baxtni intizorlik bilan kutib olish maqsadida faqat kelajakka qarab intilsa va umid bog'lasa, bugungi kunni qo'ldan boy beradi. Ularni qanchalik

¹⁵ O'zbek tilining etimologik lug'ati. 3-jild. 24-bet

¹⁶ „Baxt lingvomadaniy konsept sifatida“, Qosimova M.Z, Andijon davlat universiteti o'qituvchisi

dono bo'lmasin, italyan latifasidagi eshakka qiyoslash mumkin: eshakni yurishga majburlash uchun uchiga bir bog' beda osilgan uzun tayoqni boshiga bog'lab qo'yishgan, unga yetishish maqsadida eshak tinimsiz yuravergan. Bunday odam o'z hayotiga o'zi zomin bo'ladi, to o'lgunicha ertangi kun bilan yashayveradi".¹⁷

Maqolada shunga e'tibor beriladiki, "baxt" tushunchasi ayol va erkak jinslari tomonidan qanday qaraladi hamda "baxt" tushunchasining turli madaniyatlarda o'xshashlik va farqlari qanday bo'lishlari alohida to'xtalib o'tiladi.

Quyidagi o'zbek xalq maqollarida ayollarning baxti erkaklarga bog'liq bo'lishi, ayol uchun uning ishidan yoki o'qishidan ko'ra ko'proq baxti muhimligi tasvirlab berilgan:

1. Xotin baxti erda bo'lar,
Yetim – baxti yerda.
2. Qizga oltindan taxt emas,
Barmoqday baxt tila.
3. Har narsaning vaqti bor,
Har bir qizning baxti bor.
4. Qizning baxti – erning davlati.
5. Xon taxtidan qo'r qar, Qiz – baxtidan.

O'zbekistonda agar oilada qiz farzand bo'lsa, unga, avvalo, kattalar duo qilishib, baxt tilashadi. Baxt deganda kelajakda o'z baxtini topishi nazarda tutiladi. Shuning uchun yuqoridagi, maqollarda xotin-qizlar uchun baxtning qiymati ko'rsatilgan. Bundan tashqari, rus tilidan aforizmlar ham misol keltirishim mumkin: *“Женское счастье лучше строить мужскими руками”*, ya'ni ayollik baxti erkak qo'llari bilan qurilgani ma'qul. Bu aforizm orqali rus xalqlarida ham ayolning baxtli bo'lishi erkakning qo'lida ekanligi tasvirlab berilgan.

Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tishim kerakki, "ayollar baxti" va "erkaklar baxti" tushunchalari ham bir-biridan farq qiladi. "Ayollar baxti" deganda ayollar baxtni qanday tushunishlarini bilamiz, ya'ni ular uchun "baxt" - bu orzusidagi sevikli insonini uchratish, sevgi, go'zallik, onalikni his qilish, oilasining tinchligi. "Erkaklar baxti" ayollarnikidan farqli ravishda bo'lishi mumkin, chunki ular baxtni o'z oilasidan tashqari, o'z ishidagi muvaffaqiyatlar, hayotdagi muvaffaqiyatlar, obro'-e'tibor erishish kabilarni misol keltirishimiz mumkin. Shuni nazarda tutishimiz lozimki, erkaklarning baxtini tasvirlovchi maqollar yoki she'rlarni kam uchratamiz yoki umuman uchratmaymiz.

REFERENCES:

1. Hashimova, N., & Sattorov, T. (2021). USAGE OF ENGLISH MILITARY TERMINOLOGIES AS A NEUTRAL AND COLLOQUIAL VOCABULARY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* (2767-3758), 2(11), 162-167.
2. "Baxt lingvomadaniy konsept sifatida", Qosimova M.Z, Andijon davlat universiteti o'qituvchisi

¹⁷ Artur Shopenhauer, "Hayot saboqlari"

3. Nozima, G. (2021). Замонавий тилшуносликда термин тушунчаси ва кўп компонентлик терминларнинг таҳлили. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(6).
4. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 3-jild.
5. O'zbek xalq maqollari, 2005
6. Khoshimova, N. A. (2021). ASSOCIATIVE FIELDS OF THE COLLECTIVE AND INDIVIDUAL CONSCIOUS. *Theoretical & Applied Science*, (5), 436-439.
7. Gafurova, N. (2020). Ҳозирги замон тилшунослигида “Термин” ва унга турлича ёндашувлар. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 1(1), 58-62.
8. Shoir Usmonova, *Lingvokulturologiya darslik*, Tashkent 2019
9. Mirzaaliyev, I., & Oxunov, A. (2021). EKVIVALENTSIZ LEKSIKANING O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA IFODALANISHI. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 209-212.
10. Pakirdinova, S. A., & Qurbonova, M. (2019). IJTIMOIIY TARMOQLAR OMMALASHUVI!. *Интернаука*, (36), 70-72.
11. The Etymology of Happiness, and Some Related Words. URL: <http://faculty.smcm.edu/mstaber/etymhapp.htm> free
12. Azamovna, A. M. (2021). Solution Of Logistics Issues on The Basis of Intellectual Analysis Methods of Suppliers. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 3, 151-152.
13. Kochkorova, Z. A. Q. (2021). Translation aspects of the verbalizers of the concept of "wedding". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 989-994.
14. Mirzaev, A. B. U. (2022). IMPROVING EFL/ESL CLASSROOMS THROUGH USING ONLINE PLATFORMS: NEARPOD-AS AN EXAMPLE OF TOP-RATED ONLINE EDUCATIONAL PLATFORMS. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(4), 264-270.
15. Bahridinov, M. M., Turgunov, D. B., & Tojiboyev, I. M. (2020). SOME PROBLEMS OF LEXICAL INVESTIGATION OF THE NOVEL ULYSSES BY JAMES JOYCE. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(1), 208-212.